

SHARTNOMA

Non va non maxsulotlarini etkazib berish tugrisida.

« 28 » yanvar 2022 yil

Ruyxat № 3

Kitob tumani.

Biz, Kitob tuman “**Kitob issiq-non**” xususiy ishlab chiqarish korxonasi nomidan boshliq **S.Raxmatov** (keying o`rinlarda “Ta`minotchi”) bir tomondan Nizomga asoslanib va «**Kitob tuman maktabgacha ta`lim bo`limi** nomidan raxbar **M.Kenjaev** (keying o`rinlarda “Iste`molchi”) ikkinchi tomondan Nizomiga asoslanib xamda O`zbekiston Respublikasining “Xujalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to`grisida”gi qonuniga muvofiq ushbu shartnomani quyidagilar to`grisida tuzdik.

1. UMUMIY QOIDALAR.

1.1 “Iste`molchi” ning buyurtmasi buyicha ushbu shartnomaga asosan tomonlar o`rtasida «31» yanvar 2022 yilgacha muddatga non maxsulotlari etkazib berish buyicha xujalik aloqasi urnatildi.

1.2 Shartnomaga asosan tomonlar o`z majburiyatlarini amalga oshirgan xolda “Ta`minotchi” “Iste`molchi” tomonidan buyurtma qilingan non maxsulotlarini kelishilgan muddatda etkazib berishni “Iste`molchi” esa etkazib berilgan non maxsulotlari uchun uz vaqtida xaq tulash majburiyatini oladi.

2. NON MAXSULOTLARI TURI, NARXI VA MIQDORI.

2.1 “Iste`molchi” tomonidan buyurtma qilinadigan non maxsulotlari turi, miqdori va “Ta`minotchi” tomonidan etkazib berish muddatlari tomonlar o`rtasida uzaro kelishiladi. Yetkazib beriladigan non va non maxsulotlari turi va narxi ushbu shartnomaning ajralmas qismi bulib quyidagi jadvalda kursatiladi.

T\ r	Mahsulotnomi	Ulchov birligi	Miqdori	narxi	Summasi	izoh
1	1-navli qolipli non Gost 27842-88	kg	4731	2750	13 010 250	
	Jami:	X		X	13 010 250	

2.2 Shartnomaning umumiy summasi (O`n uch million o`n ming ikki yuz ellik) so`m

“Iste`molchi” tomonidan oldindan xaq tulab berilgan kundan boshlab “Ta`minotchi” tomonidan tayyorlab “Iste`molchi”ga etkazib beradi.

2.4 Non maxsulotlari yetkazib berilishi “Ta`minotchi” transporti orqali buladi. Yetkazib berish xarajatlari non maxsuloti narxi bilan birgalikda “Iste`molchi”ning vakili “Ta`minotchi”ning omboridan son va sifat buyicha tekshirib qabul qilib olishi bilan non maxsulotlarini “Iste`molchi” qabul qilib olish muddatlarini tugallangan bulib xisoblanadi.

2.5 “Ta`minotchi”da texnik sabablarga kura ishlab chiqarish jarayonida uzilish bulgan xollarda non etkazib berishning zaxira imkoniyatlaridan foydalanish yullari kuriladi. (Boshqa non ishlab chiqaruvchilar bilan xamkorlik)

3. NON MAXSULOTLARI TULOVLARI BUYICHA TARTIBI.

3.1 Ushbu shartnoma buyicha tulov O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 22 dekabrda 2850-son bilan ruyxatdan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi qoidalari"ga asosan byudjet tashkilotlarini Tovar (ish, xizmatlar) etkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalari majburiy tarzda G'aznachilik bo'linmasidan ruyxatdan o'tkazilib, etkazib berilayotgan Tovar (ishlar, xizmatlar)lar uchun oldindan 30 foiz (3903075) so'm tulov amalga oshiriladi va qolgan 70 foiz (9107175) so'm tovar (ishlar, xizmatlar)lar tuliq olingandan so'ng tegishli xisob-fakturalarga asosan tuloVLari amalga oshiriladi. «Xaridor» maxsulot qiymatini pul kuchirish yuli bilan amalga oshiradi.

Maxsulot «Xaridor»ga shartnomada kursatilgan miqdor va narxlar buyicha beriladi.

3.2 "Ta'minotchi"ning ishlab chiqarish xarajatlari yoki narxlarning o'zgarishi bilan non maxsulotlari narxi xam o'zgarib boradi. Ushbu uzgargan narx to'grisida iste'molchiga yozma ravishda xabar qilinadi.

3.3 "Ta'minotchi" yetkazib beriladigan non maxsulotlarini davlat standartiga mos ravishda O'z.Res. Molya vazirligi tomonidan tasdiqlangan va «O'zdonmaxsulot» A.K bilan kelishilgan narxlar asosida amalga oshiradi.

4. TOMONLARNING JAVOGBARLIGI.

4.1 Tomonlar ushbu shartnoma shartlarini qisman yoki to'liq bajarmaganliklari uchun javobgar xisoblanadilar. "Ta'minotchi" shartnomada kursatilgan maxsulotni to'liq bermasa yoki berishdan bosh tortsa xar bir kechiktirilgan kun uchun 0,5% miqdorida penya tulaydi. (lekin penya miqdori olingan maxsulotlarning umumiy qiymatini 50% dan oshmasligi lozim). Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini bo'zgan tarafni tovar (maxsulot, ish, xizmat)larni etkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmat kursatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi. Agar shartnoma shartlarini bajarmaganliklari uchun 20% jarima tulaydi va shu bilan birga "Iste'molchi" maxsulotlarning uchinchi shaxslarga ulgurji yoki chakana narxlarda sotish xuquqiga ega emas.

4.2 "Iste'molchi" olingan maxsulotning qiymatini shartnomada kelishilgan muddatda tulasama, tulovdan bosh tortsa, bosh tortilgan summaning 15% miqdorida jarima va xar bir kechiktirilgan kun uchun 0,4% miqdorida penya tulaydi. Penyaning umumiy miqdori tulanmagan summaning 50% dan oshmasligi kerak.

4.3 "Iste'molchi" shartnomada kursatilgan maxsulotni belgilangan muddatda olmasa, olishdan bosh tortsa, olinmagan maxsulot qiymatidan 5% jarima tulaydi. Bunday xolat "Ta'minotchiga" maxsulotni uz xoxishi buyicha boshqa oluvchiga sotish xuquqini beradi.

5. SHARTNOMA BUYICHA KELISHMOVCHILIKLARNI XAL QILISH TARTIBI.

5.1 Tomonlarning kelishuvi bilan xal qilib bulmaydigan nizolar qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Iqtisodiy sud orqali xal etiladi.

5.2 Tomonlar mazkur shartnoma buyicha kelib chiqadigan barcha xolatlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik xujjatlari asosida uzaro javobgardirlar.

6. FORS – MAJORXOLATLARI.

6.1 Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida uziga bogliq bulmagan sabablarga kura va yengib bulmas kuch mavjud bulgan taqdirda shartnomada kursatilgan majburiyatlar buyicha javobgar emas.

(Urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya, Yerqimirlashi, suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir.)

7.BOSHKASHARTLAR.

7.1 Ushbu shartnoma ikki tomonlama imzolanib, G'aznachilik bo'linmasidan ruyxatdan utgan kundan boshlab kuchga kiritilib 2022 yil 31-dekabrqa qadar amalda buladi.

7.2 Mazkur shartnomada kuzda tutilmagan boshqa xolatlar buyicha tomonlar O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik kodeksi" va O'zbekiston Respublikasining "Xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi tugrisida"gi Qonunlariga amal qiladi.

7.3 Ushbu shartnoma ikkala tomonga bir xil kuchga ega bulib, ikki nusxada tuzilgan.

TOMONLARNING REKVIZITLARI

“TA'MINOTCHI”

«Kitob issiq-non» XICHK

Kitob tuman S.Raximov kuchasi

Telefon 54 21352


Turonbank Shaxrisabz filiali

X/R 20208000201110573001

MFO 00989

INN 202196066

IFUT 10710

Raxbar :  S.Raxmatov

“ISTE'MOLCHI”

Kitob tuman maktabgacha ta'lim bo'limi

Kitob tuman Buyuk Ipak Yuli-145

Telefon 54-27-316

Sh.x/v 4005 2286 0102 3270 9110 0251 024

INN 305153637 OKONX: 85100


O'z.Res. Moliya vazirligi G'aznachiligi

X/R. 23 402 000 300 100 001 010

INN 201 122 919 MFO 00014

Markaziy bank Toshkent shaxar Bosh boshqarma xisob-kitob kassa markazi

Raxbar :  M.Kenjaev



YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi.

Shartnoma

2. Loyihaning nomi.

Kitob tuman maktabgacha ta'lim bo'limi hamda "Kitob issiq-non" xususiy ishlab chiqarish korxonasi o'rtasidagi 13.010.250 (O'n uch million o'n ming ikki yuz ellik) so'mlik non maxsulotlari etkazib berish haqida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.

Kitob tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga yuridik xulosa olish uchun 17-yanvar 2022-yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



I. Salomov

18-yanvar 2022-yil